Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	



O'ZBEK OILALARIDA AXLOQIY TARBIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna

Renessans ta'lim universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası katta
o'qituvchisi

Annotatsiya: Oilalarda bola tarbiyasi tarixan shakllangan davrdan boshlab dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Masalan, farzand tarbiyasi murakkab jarayon hisoblanib, uning ildizi oila, mahalla va jamiyatga borib taqaladi. Ushbu maqolada qadimgi sivilizatsiyalar davri, o'rta asrlar, Uyg'onish va Ma'rifat davri hamda zamonaviy davrlarda o'zbek oilalarida axloqiy tarbiyaning qadimiy milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar asosida shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarning ahamiyati, o'zbek oilalarida axloqiy tarbiya tamoyillari hamda axloqiy tarbiyada milliy qadriyatlarni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ota-ona, ijtimoiy burch, farzand tarbiyasi, oila, mahalla, jamiyat, milliy muammolar, bolaning shaxs sifatida rivojlanishi.

Abstract: Child rearing in families has been of great importance since its historical formation. Child rearing is a complex process whose roots lie in the family, neighborhood, and society. This article examines the ancient national values, traditions, and customs of moral upbringing in Uzbek families during the era of ancient civilizations, the Middle Ages, the Renaissance and Enlightenment, as well as in modern times. It also analyzes the importance of national values, the principles of moral upbringing in Uzbek families, and ways to develop national values within moral education.

Key words: education, parents, social duty, child rearing, family, neighborhood, society, national problems, child development as a personality.

Аннотация: Воспитание детей в семьях имеет огромное значение с момента своего исторического формирования. Например, воспитание детей – сложный процесс, корни которого уходят в семью, соседство и общество. В данной статье рассматриваются древние национальные ценности, традиции и обычаи нравственного воспитания в узбекских семьях в эпоху древних цивилизаций, Средневековья, Возрождения и Просвещения, а также в современную эпоху. Также исследуются важность национальных ценностей, принципы нравственного воспитания в узбекских семьях и способы развития национальных ценностей в нравственном воспитании.

Ключевые слова: образование, родители, общественный долг, воспитание детей, семья, соседство, общество, национальные проблемы, развитие ребёнка как личности.

KIRISH

Tarbiya ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchidir. Ta'lim-tarbiya jarayoni orqali kelajak avlodning mamlakat uchun fidoyi bo'lishi, sadoqatli fuqaro bo'lib voyaga yetishi, yurt tinchligini ko'zlashi hamda mustaqillikni asrab-avaylash kabi ezgu g'oyalar shakllanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Keyingi yillarda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan "O'z uyingni o'zing asra!" degan da'vatga bugun "O'z bolangni o'zing asra!" degan fikrni qo'shimcha qilish vaqti keldi, deb o'ylayman" ^[18], deb alohida ta'kidlagani bejiz emas.

Avlodlar ma'naviyati xazinasidan bahramand bo'layotgan o'quvchi turli muammolar, son-sanoqsiz manbalar hamda hajm jihatidan juda katta axborotlar ichida adashib qolmasligi, balki ularni har bir davrning imkoniyatlariga mos muhit bilan bog'liq holda anglab, to'g'ri xulosalar chiqara olishi zarur. Bu esa o'quvchiga ma'naviy qadriyatlarni atroflicha mushohada etishda, milliy muammolarni hal qilishda hamda uzoq tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan madaniy boyliklarni asrab-avaylab, kelgusi avlodga yetkazish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishda yordam beradi ^[18].

Axloqiy munosabatlar oilada bolaning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy munosabatlar jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos axloqiy

xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Shu bois, ularni muayyan bosqichlarga ajratgan holda axloqiy munosabatlarni shakllantirish jarayonini izchil yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sharqda oila asrlar davomida shakllanib kelgan jamiyatning mustahkam poydevori, uni harakatga keltiruvchi qudratli kuch hisoblanadi. Uning ijtimoiy-ma'naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat farovonligining negizidir. Jahon madaniyati xazinasiga al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oni, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy kabi yuzlab allomalar, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi vatanparvar qahramonlar, bir qo'lida farzand, bir qo'lida ma'naviyat beshigini tebratgan Bibixonim, Gavharshodbegim, Gulbadanbegim, Zebunnisobegim, Uvaysiy, Nodirabegim kabi oqila va fozila momolarimiz, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir, Elbek kabi millat ozodligi kurashchilarini dunyoga keltirgan, tarbiyalagan ham o'zbek oilasidir ^[164].

Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatdagi tutgan mavqeidan qat'i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'i yoki oddiy fuqaromi – baribir u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari va rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lishlari lozim. Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi hamda rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik progressiv va dolzarb bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu asarning "Siyosati mard dar borai farzandash", ya'ni "Otaning bola tarbiyasiga munosabati" bo'limida mutafakkir ota-onaning vazifalarini batafsil yoritgan. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona yoki yollangan shaxs "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim".

Axborot oqimi hozirgi kunda shu qadar shiddat bilan rivojlanmoqdaki, uning yo'lini to'sish yoki undan chetda qolish deyarli imkonsiz bo'lib bormoqda. Tanganing ikki tomoni bo'lgani singari bunda ham turli-tuman axborotlar oqimi inson ongi va dunyoqarashini boshqa bir o'zanga qiyinchiliksiz burishi mumkin. Shuningdek, ushbu jarayonlarga yangi texnologiyalarning yaratilishi, xususan mobil aloqa vositalari, internet, ommaviy ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar hamda yengil hayot tarzi kabi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiya metodi bu (yunoncha "metodos" – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; o'quvchi-yoshlarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir. Ta'lim muassasasi amaliyotiga tatbiq etilganda metodlar – bu o'quvchi-yoshlarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari ekanligi ta'kidlanadi. Demak, tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud bo'lib, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Metodning ijobiy va salbiy jihatlari bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajada samarali yoki samarasiz deb baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtayi nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq. Tarbiya maqsadi va mazmuni metodlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari ham unga muvofiq bo'lishi zarur. Tarbiyaning mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

Tarbiya jarayonida yoshlarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yosh xususiyatlari muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlardir. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan yoshlarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Jumladan, xalq pedagogikasida tarbiya metodlarining roli katta. Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin: tushuntirish (hikoya qilish, o'rgatish), mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish), namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'rash, o'rnak bo'lish), nasihat qilish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytilish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar), qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish,



ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar) kabi metodlar orqali oilada hamda jamiyatda bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi usullar muhim hisoblanadi.

Agar e'tibor berilsa, yuqoridagi beshta metod umumiy yaxlitlikni ifodalaydi. Avvalo o'quvchi-yoshlarga umumiy jarayonning mohiyati tushuntiriladi. Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar yordamida qo'llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayillar, oilaviy an'analar (tug'ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ma'lumotga egalik to'g'risidagi attestat va diplom, shuningdek, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o'ziga xos tarbiya vositasi sanaladi. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar yoshlarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari hisoblanadi.

Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchi-yoshlar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar qo'llaniladi. Yoshlarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi yoshlarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda yoshlarga mamlakat fuqarosining davlatga nisbatan muayyan huquq va burchlar asosida bog'langanligi haqida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi hamda Konstitutsiyasining mohiyati tushuntiriladi. Suhbat. Yoshlar shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchi-yoshlari uchun dolzarbligi, yoshlarda ma'naviy-axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabati hamda suhbatdan kutilayotgan natija hisobga olinishi zarur. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

- a) etik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);
- b) estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);
- d) siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va boshqalar);
- e) ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar). Hikoya.

Yoshlar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin.

Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek ommaviy axborot vositalari – radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan ma'lumotlar ham yoshlar uchun qimmatli material bo'ladi. Namuna. Yoshlar o'z atrofidagi kishilarda yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ulardan ibrat olishlari nihoyatda muhimdir. O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib boradilar. Yoshlar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvor yoshlarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa salbiy sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari. Yoshlarda o'zini-o'zi tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli va tartibli ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin.

Tarbiya jarayonida o'zini-o'zi tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari o'quvchi-yoshlarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli yoshlar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir. Yoshlarning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'zini-o'zi baholash qiyin, lekin yoshlarni bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois yoshlar irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun asosli sababga ega bo'lishi, ya'ni tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari va atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish hamda o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilada bola dunyoqarashi shakllanadigan dastlabki bosqich (0-5 yosh): Bolada axloqiy munosabatlar bola faoliyatining dastlabki davrlarida paydo bo'ladi. Ota-ona va kattalarning so'zlari hamda xatti-harakatlari orqali axloq normalariga doir tasavvurlar shakllanadi. Bolada hurmat, muhabbat va ishonch hislari paydo bo'la boshlashi bilan axloqiy munosabatlarning dastlabki jihatlari shakllanadi. Bunda ota-onalar o'z faoliyati bilan

o'rnak bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning bolaga mehr-muhabbat ko'rsatishi orqali axloqiy munosabatlarning asosiy jihatlari haqidagi tushunchalar shakllanadi.

Axloqiy qadriyatlarni tushuna boshlash bosqichi (6-10 yosh): Bu davrda bolalarda yaxshi va yomon tushunchalari shakllanadi. Axloqiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Jamoadagi va oiladagi munosabatlar orqali o'zaro hurmat hamda hamkorlik asoslari shakllanadi. Oilaviy muhit bolani ijtimoiy-lashtirishda asosiy rolni bajaradi. Bolalarga odobli bo'lish va yordam berish ko'nikmalari o'rgatiladi.

Axloqiy munosabatlarda normalarni anglash bosqichi (11-15 yosh): Bu davrga kelib bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllana boshlaydi. Ular axloqiy qadriyatlarni anglab, ularni hayotda qo'llashga harakat qiladilar. Kattalar bilan munosabatlarda tenglik va o'zaro hurmat mustahkamlanadi.

Ota-onalar bolalarga axloqiy me'yorlarni tushuntirishda izchil va konstruktiv yondashuvni ko'rsatishlari kerak. Murakkab holatlarda axloqiy qarashlarni shakllantirish uchun kattalarning maslahati muhim hisoblanadi.

Axloqiy tuyg'ularni mustahkamlash bosqichi (16-20 yosh): Bu davrda oilada bolaning shaxs sifatidagi axloqiy qarashlari aniqlashadi va shaxs sifatida o'z "men"ini shakllantirish orqali kamol topadi. Qarindoshlar, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlarda axloqiy fazilatlarni namoyon qilishga harakat qiladi. Shaxs o'z tanlovlarida axloqiy normalarni inobatga oladi. Ota-onalar farzandlarining mustaqil shaxsiy qarashlarini hurmat qilib, ularning tanlovlarini qo'llab-quvvatlashlari orqali ular bilan munosabatlarini tenglik asosida olib borishlari lozim.

Axloqiy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat bosqichi (21 yosh va undan katta): Bu davrda oilada farzandlarning shaxs sifatida mustaqil hayotga qadam qo'yishlari alohida rol o'ynaydi, chunki axloqiy munosabatlar shaxsning barqaror qarashlariga, oila a'zolariga nisbatan mehr-muhabbat va mas'uliyat hissining rivojlanishiga hamda shaxsning jamiyatda o'z roli va mas'uliyatini chuqur anglashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Oilada shakllangan axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatda mustaqil faoliyat yuritishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi hamda yangi avlodga axloqiy normalarni o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy munosabatlarning oilada shakllanish jarayoni turli bosqichlarda shaxsning yoshi va ijtimoiy muhitiga mos ravishda rivojlanadi. Oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyasi va jamiyat ta'siri bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shuning uchun har bir bosqichdagi mas'uliyatni to'g'ri anglash axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Oila axloqiy munosabatlarning tarixiy ildizlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, sharq mutafakkirlarining ta'limiy-axloqiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Ular axloq normalari orqali oilalarda bolalarni kamol toptirish, ularni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaganlar. Inson axloqiy, ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tadi va jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. Har bir xalq yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda umumbashariy axloqiy me'yorlari ham mavjud. Bunday axloqiy me'yorlar jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o'rnini belgilashda dinning ahamiyati katta.

Ta'kidlash joizki, oila inson uchun muqaddas dargoh bo'lib, u insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zaminida yuzaga kelgan. Oila taqdiri uning rasmiy tus olish lahzasidan boshlanadi, shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-ona sifatida farzandlar-u qavm-qarindoshlar, mahalla-ko'y, qisqasi jamiyat oldida, o'z navbatida farzandlar ham o'z ota-onalari va el-yurti oldida mas'uliyat sezadilar hamda burchli ekanliklarini his qilib yashaydilar. Buyuk faylasuf Jan Jak Russo oilaviy munosabatlar haqida to'xtalar ekan, oila jamiyat ichidagi kishilar birligi sifatida shu jamiyat nizomlari asosida yashasa-da, oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, oila ishlariga birovning aralashishiga haqqi yo'q, shu ma'noda oila jamiyatning muqaddas va daxlsiz uyidir, boshqacha aytganda, oila mustaqil muxtoriyatdan iborat saltanatdir. Bu saltanatning podshohi – ota, vaziri – onadir. Tom ma'noda "siyosatning prototipidir jamiyatlar, hukmdor – otaga o'xshaydi, xalq esa bolalarga o'xshaydi" ^[282]. Ma'lumki, o'zbeklarning katta oilalari jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda asta-sekin er-xotin va bolalardan iborat mustaqil yacheyka – kichik oilalarga bo'linib bordi. Ammo oilaning mustaqillikka erisha borishi uchun ko'pgina diniy va ijtimoiy an'analar ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi patriarxal tuzum sarqitlari bilan yangi o'zaro munosabatlar asta-sekin rivojlanib borishi natijasida oilaviy munosabatlarning jamiyatdagi roli ham takomillashib bordi. Oilalarda farzandlarga axloqiy tarbiya berish jarayonining asosiy ustuni ota-ona hisoblansa, jamiyatda ta'lim muassasalari ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ta'lim muassasasida bola tarbiyasi va uning axloqiy kamolotga yetishida tarbiya metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy rivojlanish bosqichlarida zamonaviy axloqiy munosabatlarning shakllanishi insoniyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich jarayoni sifatida namoyon bo'lgan. Har bir davrda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar axloqiy qadriyatlar hamda me'yorlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ilk jamiyat va ibtidoiy munosabatlar davrida odamlar o'z xatti-harakatlarini tabiiy ehtiyoj va instinktlar asosida boshqargan bo'lsalar, qabilaviy va urug'chilik davrida ijtimoiy tartibni saqlash maqsadida dastlabki axloqiy qoidalar paydo bo'lgan.



Qadimgi sivilizatsiyalar davrida axloqiy normalar davlat qonunlari bilan mustahkamlangan. O'rta asrlarda diniy axloqiy qadriyatlar kuchaygan bo'lsa, Uyg'onish va ma'rifat davrida insonparvarlik g'oyalari axloqiy qarashlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zamonaviy davrda esa shaxs huquqlari, demokratiya va global madaniyat axloqiy munosabatlarning yangi yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Hozirgi davrda ekologik muammolar, inson huquqlari, ijtimoiy tenglik, shuningdek raqamli madaniyat va internet makonidagi xatti-harakatlar zamonaviy axloqiy munosabatlarning yangi qirralarini yuzaga keltirmoqda. Tarixiy bosqichlar davomida axloqiy munosabatlar doimo o'zgarib borgan va har bir davr o'zining ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sharoitlariga mos ravishda yangi axloqiy qadriyatlarni shakllantirib kelgan.

Xulosa va takliflar

O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya qadimiy milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlariga asoslangan holda rivojlangan. Bu jarayon oila institutini mustahkamlash va jamiyatda sog'lom axloqiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar axloqiy tarbiya munosabatlarining negizini tashkil etib, oilaviy hayotning ma'naviy asoslarini shakllantiradi.

Milliy qadriyatlarning ahamiyati

Oiladagi axloqiy munosabatlar tizimi: O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya oilaning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u hurmat, mehr-oqibat, sabr va adolat tamoyillarini qamrab oladi.

Milliy va diniy qadriyatlar: O'zbek xalqining qadimiy an'analari islom dini hamda milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan bo'lib, ular oilaviy tarbiyaning asosi sifatida xizmat qiladi. O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya tamoyillari.

Kattalarga hurmat: O'zbek oilalarida yoshi kattalarga nisbatan hurmat ko'rsatish axloqiy tarbiyaning muhim qismi hisoblanadi. Bu hurmat avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Mehr-oqibat va hamjihatlik: Oila a'zolarining bir-birlariga mehribon bo'lishi, yordam ko'rsatishi va o'zaro birdamlikni saqlashi milliy axloqiy qadriyat sifatida qaraladi.

Mehmondo'stlik: Mehmonlarga hurmat ko'rsatish va ularni kutib olish odati bolalarga yoshligidan o'rgatiladi.

Halollik va adolat: Halollik, haqiqatparvarlik hamda odillik axloqiy tarbiya jarayonida ustuvor tamoyil sifatida ta'kidlanadi.

Axloqiy tarbiyadagi milliy qadriyatlarni rivojlantirish yo'llari

Ta'lim va tarbiya tizimida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish: Maktab va oila hamkorligida milliy qadriyatlarni bolalarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida milliy an'ana va qadriyatlar bilan bog'liq darslar hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish zarur.

Milliy o'yinlar va folklordan foydalanish: Bolalar o'yinlari, ertaklar va maqollar orqali axloqiy tushunchalarni singdirish samarali vosita hisoblanadi. Folklor vositasida bolalarni oila, Vatan va tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin.

Oilaviy marosimlar orqali axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash: Nikoh, sunnat to'yi, Navro'z kabi milliy bayram va marosimlar axloqiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday marosimlarda oilaning birligi va hamjihatligini namoyon etish orqali yoshlarga namunaviy axloqiy qadriyatlar singdiriladi.

Zamonaviy texnologiyalarni milliy qadriyatlar targ'ibotiga yo'naltirish: Internet va ijtimoiy tarmoqlardan milliy qadriyatlarni targ'ib qilish vositasi sifatida foydalanish mumkin. O'zbek xalqining boy madaniyatini aks ettiruvchi videoroliklar, elektron kitoblar va dasturlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy munosabatlarda milliy qadriyatlarni amalda qo'llash

Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot: Bolalarga milliy qadriyatlarni tushuntirishda ota-onaning muloqoti hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu jarayonda ota-onalar o'z xatti-harakatlari bilan namuna bo'lishi lozim.

Amaliy hayotda milliy qadriyatlar: Milliy qadriyatlarni kundalik hayotda qo'llash, masalan, oila davrasida birgalikda ovqatlanish yoki bayramlarni birgalikda nishonlash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Oilaviy an'analarni davom ettirish: O'tmish avlodlardan meros bo'lib qolgan axloqiy me'yor va an'analarni saqlash hamda ulardan foydalanish zarur. Axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari.

Globallashuvning ta'siri: Globallashuv sharoitida xorijiy madaniyatlar ta'siri ortib borayotgan bir paytda milliy qadriyatlarni asrash muhim masalaga aylanmoqda.

Texnologik taraqqiyot: Raqamli texnologiyalar axloqiy munosabatlarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli oilalarda texnologiyalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Urbanizatsiya: Shaharlarda oilaviy qadriyatlarning zaiflashishi axloqiy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek oilalarida axloqiy tarbiya milliy qadriyatlar asosida rivojlanishi ma'naviy barqarorlik va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'ziga xos madaniy, diniy va ijtimoiy tamoyillarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, milliy o'zlikni asrash hamda kelajak avlodning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilish, ular asosida zamonaviy axloqiy tarbiyani rivojlantirish uchun oilalar, ta'lim muassasalari va jamiyatning boshqa institutlari o'zaro hamkorlik qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Abdullayeva Q., Yuldashev J. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 320 b.
3. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 192 b.
4. Nishonova Z.T. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 208 b.
5. Qodirov B. Shaxs tarbiyasi va oilaviy qadriyatlar. – Toshkent: Fan, 2014. – 256 b.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
7. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Ibn Sino A. Axloqiy risolalar. – Toshkent: Fan, 1980.
9. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
10. Sukhomlinskiy V.A. Bola qalbiga yo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
11. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Harvard University Press, 1979.
12. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.